



## **FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI**

---



---

2024 - yil 14 - mart

35-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi “Budget kodeksi”ning 28, 73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruva tizimini takomillashtirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qarori va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 6-martdag‘i 24/07-01-01/305-sonli xatini inobatga olib, Buvayda tuman Mahalla uyushmasi uchun ajratilgan binoni ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun 130.0 (bir yuz o‘ttiz) mln.so‘m va loyihalash ishlari uchun 3.5 (uch million besh yuz ming) mln.so‘m jami 133.5 (bir yuz o‘ttiz uch million besh yuz ming) mln.so‘m mablag‘ tuman mahalliy budgetining 2024-yil zaxira mablag‘lari hisobidan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ajratilsin.
2. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Tursunov)ga:
  - ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli, to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta’minlash;
  - moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli Iqtisodiyot va moliya hamda G‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.
3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.
4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Mirzaxalilov va tuman hokimi o‘rinbosari S.Xizirovlar

zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Odiljonovich I. B.**